

## OLAMNING LISONIY MANZARASIDA PRETSEDENT BIRLIKLAR IFODASI

**Xolnazarov Umid Erkinovich,**  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*  
*Termiz davlat universiteti*  
*E-mail: [xolnazarovu@tersu.uz](mailto:xolnazarovu@tersu.uz)*  
*ORCID: 0009-0003-6126-1140*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488746>**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada alohida olingan etnosning, xususan, o‘zbek xalqining olamni anglash tarzi, milliy-madaniy qadriyatlar tizimi pretsedent birliklar vositasida lingvomadaniy jamiyat vakillari kognitiv bazasidan mustahkam o‘rin egallaganligi nazariy va tahliliy misollar orqali izohlangan.

*Tayanch so‘zlar:* pretsedent birlik, pretsedent nom, pretsedent jumla, stereotip, qadriyat, metafora, ibora, milliy kolorit.

Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida, xususan, antropotsentrik tilshunoslikda til manbalarini shu tilda so‘zlashuvchi xalq, elat, etnos, sotsiumning madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga e‘tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, milliy-madaniy qadriyatlar talqini sirasida alohida o‘rin tutadigan barqaror milliy-madaniy tasavvurlar – stereotip [Sh.Usmonova, 2019], metaforalar kabi pretsedent birliklarni ham o‘rganish borliq lisoniy tasvirining vujudga kelish omillarini ochish va talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. Alohida ta‘kidlash joizki, D.S.Xudoyberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik vazifani bajarish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlar (o‘zbek xalqiga taalluqli bo‘lgan so‘zlar, muallif nutqi, milliylik bo‘yog‘i bilan sug‘orilgan birliklar)ni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi. Olima ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholaydi [D.Xudoyberganova, 2015: 18].

Darhaqiqat, pretsedent birliklar turli madaniyat vakillari tili va tafakkurining o‘ziga xos obrazli ifodasi o‘laroq metaforalar zamirida yuzaga keladi. Metafora esa tilshunoslikka ritorika san‘ati orqali kirib kelgan bo‘lib, unga nutqni boyitish va hissiy-ta‘sirchanlik baxsh etish vositasi sifatida qaralgan. Masalan, yunon notig‘i Gorgiy notiqning vazifasi tinglovchilarni o‘z gaplariga ishontirishdan iboratligi haqida fikr bildirib, bu maqsadga xizmat qiluvchi “Gorgiy figuralari” deb nomlanadigan usullar qatoriga metaforalar, tovush takrorlari, antiteza shaklida tuzilgan gap (jumla) va shu kabilarni kiritadi [A.Abdusaidov, 2013].

Ma‘lumki, ko‘pincha tasniflash uchun konseptual soha manbalari olinadi, shunga o‘xshash tasniflarni O.A.Vorojsova, Y.A.Gunko, Y.A.Zemskaya, G.G.Slishkin, R.L.Smulakovskaya, A.E.Suprun, S.L.Kushneruk va boshqa ko‘plab

mutaxassislar taklif qiladilar. Shuningdek, D.B.Gudkov, V.V.Krasnix, S.L.Kushneruk, N.V.Nemirova, R.L.Smulakovskayaning tadqiqotlarida pretsedent birliklar o‘zaro ta’sirining xususiyatiga ko‘ra tasniflar ham batafsil ko‘rib chiqilgan.

V.V.Krasnix, G.G.Slishkin va boshqa bir qator mualliflarning nashrlarida pretsedent birliklarning bo‘linishi (turli mamlakatlarda, jamiyatlarda mashhurlik darajasiga qarab) muhim o‘rin egallaydi. Tilshunoslar jamoasi bunday birliklar birliklar *global* (masalan, Don Kixot, Otello va Napoleon Bonapartning pretsedent nomlari turli mamlakatlarda tanilgan), *milliy* (bular, asosan, bir mamlakatda faol foydalaniladigan birliklar) va *ijtimoiy* pretsedent birliklar (umummilliy, ammo ba’zi bir ijtimoiy, professional va boshqa guruhlar)ga ajratilishini qayd etadilar. M.Saydaliyevaning tadqiqotida pretsedent birliklarning ma’lumlik darajasiga ko‘ra tasnifga aloqador quyidagi fikrlarni kuzatamiz: “D.B.Gudkovning qarashlariga ko‘ra, bu birliklar *avtopretsedentlar*, *sotsial (ijtimoiy) pretsedentlar*, *milliy pretsedent birliklar* va *universal (internatsional) pretsedent birliklarga* ajraladi. Olim avtopretsedentlik hodisasini yakka shaxs ongida olamning aks etishi bilan tushuntiradi. Yuqoridagi taqsimlanishdan biroz farqli talqin S.S.Xvatovada kuzatiladi: olima pretsedent fenomenlarni ikkiga – *avtopretsedent* va *ijtimoiy pretsedentlarga* ajratadi va ijtimoiy pretsedentlarning o‘zini ham milliy pretsedentlar, xalqaro va madaniy pretsedentlar singari ichki turlarga taqsimlaydi. Yuqoridagi tavsifdagidan farqli jihat *madaniy pretsedentlar* bo‘lib, olima bu guruhga yagona madaniyatga, dinga birlashuvchi turli lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga xos pretsedent birliklarni kiritadi” [Saydaliyeva, 2025: 12].

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda tilning barcha sath birliklari, xususan, so‘z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qilayotgani kuzatiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g‘oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Hozirda badiiy adabiyotda kishi va joy nomlarini ifodalovchi otlarning belgilar asosida implitsit (yashirin) ma’noda qo‘llanishi keng kuzatilmoqda. Dunyo tilshunosligidan ma’lumki, keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan semantik va sintaktik yondashuv mahsuli bo‘lgan matnga antropotsentrik nuqtayi nazardan “lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi, shuningdek, ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli”, ya’ni diskurs sifatida yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu usul tilshunoslikda asar qahramonining qarashlari, shaxsiy sifatlari, shuningdek, muallifning o‘z personajiga munosabati, personajning boshqalarga nisbatan emotsional munosabati pretsedent birliklar vositasida lingvokulturologik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yozuvchi Tog‘ay

Murod nasriy nutqida o‘zbek madaniyatiga xos milliy koloritni bera oluvchi iboralar, obrazli ifodalar, ayniqsa, pretsedent nom, birliklardan umumli foydalanganligi asarning qiymatini yanada oshirgan.

Quyidagi misollarga e‘tibor bersak: “Bo‘ri polvon davradan xursand: janjal-araz yo‘q. Polvonlar *seni menga bormay olishayapti. O‘zini oynaga solmay olishayapti. O‘zini taroziga solmay olishayapti.* Ana, xo‘jasoatlik Sadir polvon sho‘rchilik Ro‘zi polvonni yelkasidan oshirib urdi. Ro‘zi polvon origa Maksim polvon degan chiqdi (“Yulduzlar mangu yonadi”). “Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko‘rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig‘ladi. – *Kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi,* degani shu-da, – dedi. Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da telpagimni olmadim” (“Ot kishnagan oqshom”). “Daho o‘z viloyatiga ishga yuborildi. Daho shaharda qolmoqchi bo‘ldi. Shaharda qolish uchun pinhona urinib ko‘rdi. Ammo ish masalasi qiyin bo‘ldi. Daho *ichini it tirnadi... Daho o‘zini-o‘zi qafasga soldi.* Yuragi siqilgandan-siqildi. Yuragi cholvori balog‘iday g‘ijim-g‘ijim bo‘ldi. Oqshomlari *ichini it tataladi.* Tizzasiga shapillatib urdi. Sapchib turdi. Ko‘chaga yo‘l oldi” (“Momo yer qo‘shig‘i”). Berilgan matnlardagi *seni menga bormay, o‘zini oynaga solmay, o‘zini taroziga solmay* (polvonlarga xos dangallik, kurash tushishda izzattalablikka bormaslik shartining evfemik talqini) va *ichini it tirnadi, ichini it tataladi* ma‘nodosh iboralar, pretsedent birliklari o‘zbek tilining boy imkoniyatlariga yetarli dalil bo‘lib, garchi takror Tog‘ay Murod idiolektiga xos yorqin xususiyat bo‘lsa ham, fikr takrorining bu turdagi nutqiy yechimi qahramon ruhiy holatiga doir tasvirning ishonarli chiqishiga sabab ko‘rsatgan. *Kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi* pretsedent birligi esa yo‘qsil insonlarning shundoq ham mashaqqatli hayotida takror sinovlariga duch kelaverishiga ishora.

Rus tilshunosligida muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror birikmalar, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida e‘tirof etiladi. Ya‘ni ushbu atama orqali “emotsional va bilish bilan bog‘liq munosabatlarda shaxs uchun ahamiyatli, shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan, ya‘ni mazkur shaxsning atrofida bilish bilan birgalikda, uning o‘tmishdoshlari va zamondoshlariga ham yaxshi tanish bo‘lgan matnlar, muloqotda qayta-qayta yangidan tiklanadigan murojaatlar” deb tushiniladi. Y.Karaulov dastlab pretsedent nomlarni asar nomlari va sitatlar tarkibiga kiritadi. Keyinchalik O.V.Lisochenko pretsedent nomlarning chegarasini kengaytirib, unga antroponimlarni ham qo‘shadi.

Rus tilshunosi Y.A.Naximova pretsedent hodisalarni xalqning milliy ongida saqlanuvchi tizim sifatida baholaydi. Olima tilshunoslikda bunday nomlarga nisbatan o‘ndan ortiq yondashuv mavjudligini ta‘kidlaydi. Bular intertekstuallik, pretsedentlik,

madaniyatlararo muloqot, nomlarning ko‘p ma’noлилиги, allyuziya, matn reminissensiyasi, shuningdek, metafora haqidagi an’anaviy va kognitiv nazariyalardir.

I.V.Zaxarenko, V.V.Krasix, D.B.Gudkov kabi olimlarning fikricha, pretsedent nomlarga berilgan ta’riflarni umumlashtirish natijasida bu tushunchaga xos bo‘lgan xususiyatlarni quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq: 1) til egalari xotirasida mavjud bo‘lishlik; 2) mashhurlik; 3) biror mashhur matn yoki vaziyat bilan bog‘liqlik; 4) ramziy ma’no kasb etish.

Tilshunos V.A.Maslova fikricha, pretsedent nomlar – bu tilshunoslik jamiyatining barcha vakillariga tanish bo‘lgan voqealarda, barchaga ma’lum bo‘lgan matnlarda ishlatiladigan mashhur ismlar, mavzular nomidir. Rus madaniyatidagi pretsedent nomlarga nafaqat rus tili, balki jahon madaniyati uchun ham muhim bo‘lgan nomlar kiradi.

Aytish joizki, har qanday badiiy asar tili tasviriy vositalarning nutqiy qimmatini, nutqning jozibadorligini ta’minlashdagi, shuningdek, badiiy ta’sirchanligini oshirishdagi imkoniyatlari til sohiblarining dunyoni o‘zgacha his etishi bilan belgilanadi. Agar “til – yozuvchi uslubining qalbi” ekanini hisobga oladigan bo‘lsak, Tog‘ay Murod badiiy nutqidagi metaforalar qurshovida ifodalangan matn obrazli fikrni yuzaga keltiradigan, ijodkorning badiiy tilini yorqinlashtirishda muhim o‘rin egallaydigan lisoniy kombinatsiyadir [D.Xudoyberganova, 2015]. Buni adibning qissalari, xususan, “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi obrazli-motivlashgan so‘zlar (metaforalar)ning diskursiv tahlili jarayonida ko‘rib chiqamiz [U.Xolnazarov, 2023]:

*“...Tog‘lar kulrang, qirlar kulrang bo‘ldi. Archalar ko‘m-ko‘k bo‘ldi. Adirlar o‘rkach-o‘rkach bo‘ldi. Tovatoshlar ulkan-ulkan bo‘ldi. Yong‘oqlar azim-azim bo‘ldi”.* Qissadan keltirilgan parchada 5 ta gap mavjud bo‘lib, ijodkor olam manzarasiga doir assotsiativ tafakkur vaqt tasvirini matn-metafora orqali ro‘yobga chiqargan.

Pretsedent nomlar tilshunoslikda, asosan, lingvokulturologik va kognitiv aspektda o‘rganilgan. Chunki pretsedent nomlar, eng avvalo, xalqning madaniyati va lisoniy xotirasi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa sanaladi. Shu bilan birga, ular biror predmet yoki tushunchaning nomi, ya’ni onomastik birliklar sifatida ham qayd etiladi. Nomlarni pretsedentlik bilan bog‘lab o‘rgangan Y.A.Fleysher bu haqda quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Bir tomondan, pretsedent nomlar kognitiv zahirani shakllantirish xususiyati bilan pretsedent birliklar qatoriga kirsam, ikkinchi tomondan, ular nom sifatida onomastik ko‘lamning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Binobarin, pretsedent nomlarning onomastik ko‘lamdagi o‘rnini belgilash zaruriy muammolardan biridir”.

V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra, muayyan millatlarga yaxshi tanish bo‘lgan matnlar yoki voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar deyiladi. Masalan: Oblomov, Taras Bulba kabi. Pretsedent nomlar qatoriga xalqlarning mashhur insonlari, qahramonlari: Go‘ro‘g‘li, Alpomish, Beruniy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Kumush, Farhod, Shirin, Otabek, Layli, Majnun, To‘maris, Tohir, Zuhra, Zulfiya, Nodirabegim, Qodiriylarni; Charlz Darvin, Gamlet, Yildirim Boyazid, Gerakl, Kolumb, Otello, Aristotel, Yago, Buratino, Arastu kabi nomlarni kiritish mumkin.

Ma‘lumki, *pretsedent matn* tushunchasi ortidan odatiy tarzda *pretsedent jumla* tushunchasi paydo bo‘ladi. V.G.Kostomarov va N.D.Burvikovalar pretsedent jumlar o‘zida butun matn pretsedentligini jamlaydi, deb hisoblaydilar. Ushbu mualliflar mustahkam pozitsiyada bo‘lgan holda, dastlabki matnning fragmenti bosh yoki so‘ng gap bo‘lgan holda, ushbu pretsedent matnni pretsedent jumlagi “aylantirish” jarayonini matniy reduksiya, ya’ni matndagi qisqartirish deb ataydilar. Matndagi “mustahkam pozitsiya” pretsedentlik xususiyatini olish uchun zarur va yetarli asos bo‘lib xizmat qilmaydi, sababi fikr universal xarakterni hamda umumiy haqiqatni aforistik shaklda ifoda etishi kerak [V.G.Kostomarov, 1994: 74]. Pretsedent jumla (*прецедентное высказывание*) – nutqiy tafakkur faoliyatining qayta murojaat qilinadigan mahsuloti. Pretsedent jumlar tarkibiga turli xarakterli matnlardagi sitata (iqtibos) lar, aforizmlar, maqollar va matallar kiradi [V.V.Krasnix, 2002: 48]. Ko‘rinadiki, badiiy adabiyotda, xususan, Tog‘ay Murod badiiy nutqida muayyan xalq hayoti bilan bog‘liq obyektiv olamning u yoki bu hodisa va dalillari obrazli umumlashtirilib ifodalanadi.

Taqqoslash uchun misollar: “*Erkak zoti yomon bo‘lib tug‘ilmaydi! ...Nima desa, xo‘p deydi! Qo‘lini kosov qiladi, sochini supurgi qiladi! Mayli, bolalari onamizni o‘z onasi o‘rnida ko‘rmasa-da, mayli! Ammo onamiz ularni o‘z bolasi o‘rnida ko‘radi! Bir onachalik qaraydi!*” (“Oydinda yurgan odamlar”). “*Birodarlar, yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi! Xufton vaqti-xufton vaqti uzangi yo‘ldoshlarim bilan hamsoyamiz Rixsiyev ko‘ngil so‘rab keldi*” (“Ot kishnagan oqshom”).

*Qo‘lini kosov qiladi, sochini supurgi qiladi* iborasi; *yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi* individual-mualliflik metaforasi, *ko‘ngil so‘ramoq* frazeologik (somatik) metaforalarini til egasining lisoniy xotirasida muhrlangan pretsedent jumla yoki obrazli motivlashgan birliklar sifatida talqin qilish mumkin.

Xullas, har bir tilda o‘z xususiyatiga, o‘ziga xos ma‘no va qurilish jihatlariga ega lingvokulturologik birlik, metafora, ayniqsa, pretsedent birlik, jumlar nutqda badiiy tasvir unsurlarini keltirib chiqaradi. Ushbu omillar tilning xalqchilligi va

o‘ziga xosligini belgilagani holda, badiiy asar (Tog‘ay Murod asarlari) ning milliy koloritini, yozuvchining idiolektini yuzaga keltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdusaidov A. O‘qituvchining nutq mahorati. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, 2019.
3. Xolnazarov U. Nasriy nutqda metaforalarning lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (Tog‘ay Murod qissalari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Termiz, 2023.
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
5. Бикертон Д. Введение в лингвистическую теорию метафоры. // Теория метафоры. – М., 1990.
6. Костомаров В.Г. Как тексты становятся прецедентными. / Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. // Русский язык за рубежом. – №1. – М., 1994.
7. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: МГУ, 2002.
8. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000.
9. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012.
10. Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015.
11. Saydaliyeva M. O‘zbek tilidagi pretsedent nomlarning lingvistik tadqiqi: Filol. fan bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025.
12. <https://www.twirpx.com/file/213813/>